

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**OLLABERGANOVA DILNOZ QODIRBERGANOVNA**

**OSIYO-AMERIKA DIASPORA ADABIYOTIDA**  
**AYOL PERSPEKTIVASI TADQIQI**  
**(M.YUSUFZOY VA X.HUSAYNIY ASARLARI MISOLIDA)**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Ollaberganova Dilnoz Qodirberganovna**

Osiyo-Amerika diaspora adabiyotida ayol perspektivasi tadqiqi

(M.Yusufzoy va X.Husayniy asarlari misolida) ..... 3

**Оллаберганова Дилноз Кодирбергановна**

Исследование перспективы женщины в литературе азиатско-американской диаспоры (на примере творчества М.Юсуфзая и Х.Хоссейни) .....

23

**Ollaberganova Dilnoz Qodirberganovna**

Research on the Perspective of a Woman in Asian-American Diaspora

Literature (on the Example of the Works by M.Yousafzai and K.Hosseini).. 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**OLLABERGANOVA DILNOZ QODIRBERGANOVNA**

**OSIYO-AMERIKA DIASPORA ADABIYOTIDA**  
**AYOL PERSPEKTIVASI TADQIQI**  
**(M.YUSUFZOY VA X.HUSAYNIY ASARLARI MISOLIDA)**

**10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2897 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Ruzmatova Dilnoza Ramatjanovna  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Sadiqov Zohid Yaqubjanovich  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor  
Adilova Shaxnoza Raximovna  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "8" aprel soat 12<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21 A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. faks: (99871) 230-12-92; e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1163 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21 A uy. Tel.: (99871) 230-12-91; faks (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "24" mart kuni tarqatildi.  
(2025-yil "24" mart da 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



**I.M.Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
ped.f.d., professor

**X.B.Samigova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, filol.f.d., professor

**J.A.Yakubov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Globallashuv va o‘zaro integratsiya tufayli jahon adabiyotshunosligida XXI asrga kelib diaspora adabiyoti eng keng tarqalgan yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda hamda tobora keng yoyilmoqda. Ushbu adabiyot diaspora nazariyasi tamoyillariga suyangan holda dunyodagi davlatlar, millatlar va xalqlar o‘rtasidagi adabiy, madaniy, lisoniy an‘ana va qadriyatlar almashinuvi borasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tovchi asarlar yaratilishini o‘zida ifoda etadi. Bugungi kunda zamonaviy adabiyotshunoslik fanining oldida turgan dolzarb masalalardan biri ham turli tarixiy-madaniy ildizlarga mansub bo‘lgan xalqlarning adabiyotini, xususan, Amerika va Yevropadagi Osiyo diasporasi vakillarining ijod namunalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, mushtarak jihatlarni aniqlashdan iboratdir.

Dunyo adabiyotshunosligida Osiyo-Amerika diaspora adabiyoti taraqqiyotiga hissa qo‘shib kelayotgan yozuvchilarning hayoti va ijodini o‘rganish, asarlarini turli ilmiy nuqtai nazarlar asosida tarixiy-madaniy, biografik va psixologik metodlar vositasida tahlil qilish sohada ilmiy yangiliklar qilishga, eng muhimi, adabiyot orqali Osiyo diasporasiga xos turfa xil perspektivalarni, yozuvchilarning ochilmagan qirralarini yoritishga imkon beradi. Osiyo-Amerika diasporasi vakillarining ijodida makon va zamon jihatdan xilma-xillik, jamiyat va ularda yashayotgan insonlarning o‘xshash hamda farqli jihatlari, ularning ijtimoiy-siyosiy masalalarga nisbatan qarashlari o‘z aksini topadi. Osiyo-Amerika diaspora adabiyoti rakursidan turib, Afg‘oniston va Pokistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot bo‘yicha har tomonlama izlanishlar olib borish Xolid Husayniy hamda Malala Yusufzoylarning asarlarini ham tadqiq etish zaruratini taqozo etadi.

Mustaqillik yillaridan buyon respublikamizda ilm-ma‘rifat, madaniyat va san‘at, adabiyot hamda badiiy ijod sohalari rivoji borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganlaridek, “Agar 3 ming yillik tariximizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ota-bobolarimiz asrlar mobaynida dunyo tamadduniga nafaqat jismoniy, balki intellektual mehnati bilan ulkan hissa qo‘shganiga guvoh bo‘lamiz. Biz jahonga faqat xomashyo emas, avvalo, ilm-ma‘rifat, ma‘naviy boylik yetkazib bergan ne-ne ulug‘ zotlarning avlodimiz. Hech shubhasiz, ularga xos bo‘lgan buyuk fazilatlar, ular yaratgan shonli an‘analar bugun ham bizning qalbimizda, ongimizda, hayotimizda yashamoqda. Men ishonaman, biz bu tarixiy yo‘lni munosib davom ettirishga har tomonlama qodirmiz. Bugungi kunda dunyo xaritasida tutgan o‘rnimiz, o‘z oldimizga qo‘yayotgan juda ulkan maqsad va marralarimiz ham aynan shuni taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, biz transport-logistika tizimi bilan birga, bugun zamonning o‘zi talab qilayotgan ilm-fan, innovatsiya, IT va aqliy mehnatga asoslangan boshqa sohalarni jadal rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratyapmiz. Aynan shu yo‘nalishlar O‘zbekiston iqtisodiyotining yaqin kelajakdagi asosiy lokomotivlariga aylanadi”<sup>1</sup>. Xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashimiz uchun ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ma‘naviy muhit

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/6637> [nutq sanasi: 31.08.2023].

barqarorligini mustahkamlash muhim vazifalardandir. Adabiyotshunoslik sohasining ravnaqi qardosh va qardosh bo'lmagan millatlar adabiyotining o'zaro ilmiy tadqiqi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'z navbatida, chuqur o'rganishlar olib borishni taqozo qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son farmonlari, 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son, 2023-yil 28-noyabrdagi "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-380-son qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 3-martdagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 117-son qarori va sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Diaspora adabiyoti globallashtirish davrida insoniyat boshidan kechirgan tub burilishlar, turli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sabablarga ko'ra u yoki bu davlat hamda jamiyatga mansub odamlarning yangi muhitga ko'chib borishlari natijasidagi makon o'zgarishlari mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Diaspora adabiyotining asosini ilgari mustamlaka bo'lgan yoki kam taraqqiy etgan hududlardan Amerika va Yevropa qit'alaridagi mamlakatlarga ozodlik, tenglik, boshpana izlab kelib qolgan ijodkorlar tashkil etadi. Osiyo qit'asidan G'arbga ko'chib ketgan yozuvchilar ijodining chuqur tadqiqi, avvalo, R.Blumenthal, M.M.Raihanah, D.Helly va M.Ilyas<sup>2</sup> izlanishlarida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, adabiyotshunoslar E.Kim, S.Koshy, B.Adams, Sh.Bahety<sup>3</sup> Osiyo-Amerika adabiyotini E.Saidning oriyentalizm nazariyasi tamoyillari asosida tahlil qilgan. Sh.Bahety o'z ilmiy ishida dastlab osiyo-amerikalik tushunchasiga ta'rif berib, ushbu diasporaga tegishli adabiyot tarixining XX asr boshlarida diasporaga nisbatan

---

<sup>2</sup> Blumenthal R. Looking for Home in the Islamic Diaspora of Ayaan Hirsi Ali, Azar Nafisi, and Khaled Hosseini // Arab Studies Quarterly, 2012. Vol. 34. No. 4, etc; Raihanah M.M. et al. Exploring representations of Self by Diasporic Muslim Writers // Procedia. – Social and Behavioral Sciences 118, 2014. – P. 365-370; Helly D. Diaspora: History of an Idea, in Muslim Diaspora: Gender, Culture, and Identity, ed. Haideh Moghissi. – New York: Routledge, 2006, XIV; Ilyas M. Expatriate Experience and the Fictional World of Diaspora // Journal of Social Studies Education Research, 2018. – № 9 (1).

<sup>3</sup> Kim E.H. Asian American Literature: An Introduction to the Writings and Their Social Context. – Philadelphia: Temple University Press, 1982; Koshy S. "The Fiction of Asian American Literature". Asian American Studies: a Reader. Eds. Min Song and Jean Wu. – New Brunswick: Rutgers University Press, 2000. – P. 467-495; Adams B. Asian American Literature. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2008; Bahety Sh. Orientalism in Contemporary Asian American Literature. Johann Wolfgang Goethe university, 2009. February. – 106 p.

Amerika adabiyotining noo‘rin munosabati ta‘sirida vujudga kelganligini, keyinchalik rivoya etish uslubi, janr xususiyatlarini o‘zlashtirganligi va boshqa mushtarakliklar mavjudligi tufayli Amerika adabiyotining bir qismiga aylanganligini e‘tirof etadi. R.Blumental Ayan Hirsi Ali, Azar Nafisi va Xolid Husayniy asarlari misolida islom diasporasi adabiyotini ideal makon nuqtayi nazaridan o‘rgangan bo‘lsa, A.Qasim va S.L.Graham<sup>4</sup> Malala Yusufzoyning asarlarida ayollik perspektivasi hamda ayollarning jamiyatdagi o‘rni muammosini tadqiq etgan.

O‘zbek olimlaridan D.Ruzmatova Xolid Husayniy ijodining badiiy o‘ziga xosliklari, ayollik, oila va bolalik perspektivalari borasida keng ko‘lamli tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqinini o‘rgangan Y.Eshmatovanning ishi ham tadqiqotimiz uchun ahamiyatlidir. Shuningdek, ayol qahramonning badiiy psixologizmini to‘laqonli yoritishda N.Qobilova va Sh.Botirovalarning<sup>5</sup> doktorlik dissertatsiyalari o‘rganildi.

Amerikalik afg‘on adibi Xolid Husayniy ijodi bo‘yicha bir qancha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, uning Pokiston diaspora adabiyoti namoyondasi Malala Yusufzoyning asarlari bilan ayol perspektivasi nuqtayi nazaridan qiyosiy tadqiqi hali ilmiy jihatdan alohida o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida Angliya va Amerika adabiyoti tarixi hamda dolzarb masalalari, badiiy tahlil usul va tamoyillari ustuvor ilmiy yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Osiyo-Amerika diaspora adabiyotida ayol perspektivasi muammosini Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy ijodi misolida ilmiy-tahliliy, qiyosiy va nazariy umumlashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy asarlarini ayol perspektivasi asosida tahlilga tortish;

Osiyo-Amerika diasporasi adabiyoti namunalarining adabiy-estetik mazmun-mohiyatini va asosiy xususiyatlarini belgilash;

ingliz tilida ijod qiluvchi Pokiston diasporasi yozuvchisi Malala Yusufzoy va Afg‘oniston diasporasi yozuvchisi Xolid Husayniy ijodining o‘ziga xos hamda mushtarak jihatlarini nazariy dalillash;

badiiy psixologizmga ayol qahramonlarning tasvir yo‘sinlarini asoslab, biografik metod bilan aloqadorligini, o‘ziga xos poetik xususiyatlarini ko‘rsatib berish;

bolalik, ayollik, ta‘lim, oila muammolarini romanlar syujeti asosida tasvirlashda Husayniy va Yusufzoyning ijodiy mahorati hamda uslubiyatining o‘ziga xos tamoyillarini aniqlash;

---

<sup>4</sup> Qasim A., Graham S. The construction of self and others: A study of the identity construction in I am Malala. Liberal Arts & Social Sciences International Journal (LASSIJ), 2021. Jan-June. Vol. 5. No 1. – P. 597-610 // <https://doi.org/10.47264/idea.lassij/5.1.39>

<sup>5</sup> Ruzmatova D.R. Holid Xusayniy asarlarining badiiy o‘ziga xosligi. F.f.f.d.diss. ... –Toshkent, 2020. – 146 b.; Eshmatova Y. Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. F.f.f.d.diss. ... – Toshkent, 2020; Qobilova N. Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. F.f.f.d.dis. – Buxoro, 2020; Botirova Sh. Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy psixologizm (Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, “Sabo va Samandar” romanlari misolida). F.f.f.d. dis. – Qarshi, 2019.

Xolid Husayniy va Malala Yusufzoyning ayol qahramonlarni yaratish mahorati, obrazlarining ruhiy olami, uning ijtimoiy-psixologik, maishiy-biografik omillarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida Xolid Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi”, “Tog‘lar ham sado beradi”, Malala Yusufzoyning “Men Malalaman” va “Vatandan ayrolarmiz” (“We are displaced”) asarlari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy asarlarini ayol perspektivasi jihatidan tadqiq qilish orqali Osiyo-Amerika diaspora adabiyotining xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada biografik, psixologik, qiyosiy-tipologik, tavsifiy va stilistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ayol perspektivasi negizida Osiyo-Amerika diaspora adabiyotidagi milliy va umuminsoniy g‘oyalarning izchil tahlili natijasida mazkur adabiy yo‘nalishning sharq va g‘arbgga xoslik xususiyatlari hamda kategoriyalari diaspora adabiyoti qonuniyatlari asosida tasniflangan;

Afg‘oniston va Pokistondagi musulmon jamiyatlarida ayolning maqomi, ayol – oila – jamiyat triadasining badiiy tasvirini yaratishda Osiyo-Amerika diaspora adabiyoti namoyandalarining etnik kelib chiqish, madaniyat, din hamda ijtimoiy qatlam kabi omillardan foydalanish mahorati badiiy tasvir vositalari yordamida dalillangan;

baxtsiz bolalik – cheklangan ta’lim – nochor turmush muammolari yechimida bosh va ikkinchi darajali ayol qahramonlar ruhiyatida yuzaga kelgan evrilishlar, ichki kurashlar, qalb jarohatlari, qat’iyat hamda jasoratlari ayollik perspektivasi va badiiy psixologizm tamoyillari asosida ochib berilgan;

Xolid Husayniy hamda Malala Yusufzoy asarlaridagi ayni zamon va makonda ayolga bo‘lgan ayovsiz munosabat, poymol etilgan qadr-qimmat hamda mangu va tarixiy mavzularni biografik metod yordamida tasvirlash mahorati badiiy-konseptual yaxlitlikda ilmiy-nazariy jihatdan isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Osiyo-Amerika diaspora adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil va tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy tushunchalar berishi, adabiyot nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining nazariy jihatdan boyishiga xizmat qilishi asoslangan;

Osiyo-Amerika diaspora adabiyotida yozuvchilarning ijodiy-individual uslubiyati hamda romannavislik mahorati xususiyatlarini tahlil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

pushtun qadriyatlarida ayolning maqomi hamda o‘rni Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy romanlaridagi ayol perspektivasining badiiy tasviriga asoslangan holda ilmiy-nazariy aspektda yoritilgan;

Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy asarlarining g‘oyaviy-mavzuviy tarkibi abadiy hamda tarixiy ahamiyatiga binoan o‘zaro qiyoslangan;

hayot haqiqatining badiiy haqiqatga ko‘chishi, turli makon va zamonlardagi hayotning mohiyatini ayol obrazlarida aks etish jarayoni ushbu yozuvchilarning



ijodiy-individual uslubi hamda mahorati, shuningdek, ular uslubidagi o'xshashliklar va farqli jihatlarni tahlil etish asnosida yoritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** obyektga yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslangani, tanlangan romanlarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar adabiyotshunoslik metodologiyasi vositasida chiqarilgani, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilgani, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan xulosalarning jahon adabiyotshunosligida tobora dolzarblik kasb etib borayotgan diaspora adabiyoti ko'rinishlari, talqini, maqomi, ulardagi badiiy tasvir tizimiga oid ma'lumotlarni boyitishi, mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va ilmiy asarlar yozishda ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Osiyo-Amerika diaspora adabiyoti namoyandalari Xolid Husayniy hamda Malala Yusufzoy romanlarida ayol perspektivasining aks etishida muhim rol o'ynovchi motivlar va ularning xususiyatlarini aniqlashda muhim manba vazifasini bajara olishi, uning xulosalaridan "Angliya adabiyoti", "Adabiy oqimlar evolyutsiyasi", "Adabiyot nazariyasi", "Stilistika", "Matn tahlili" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza va seminar mashg'ulotlari mazmunini takomillashtirishda, fakultativ darslar va maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy asarlari misolida Osiyo-Amerika diaspora adabiyotidagi ayol perspektivasini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natija hamda xulosalar asosida:

ayol perspektivasi negizida Osiyo-Amerika diaspora adabiyotidagi milliy va umuminsoniy g'oyalarning diaspora adabiyoti qonuniyatlari orqali tahlili natijasida ushbu adabiy yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari hamda kategoriyalari tasniflanganiga oid xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida Britaniya Kengashi (British Council) ko'magida 2020-2022-yillarda amalga oshirilgan 1683580 raqamli "English as a school subject" mavzusidagi xalqaro loyihada foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 6-maydagi 01/1655-son ma'lumotnomasi). Natijada Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy asarlarida ayol qahramonlarning tasvir yo'sinlari biografik metod bilan aloqadorligi hamda diaspora adabiyotining o'ziga xos poetik xususiyatlari loyiha mazmun-mohiyatini boyitgan;

Afg'oniston va Pokistondagi musulmon jamiyatlarida ayolning maqomi, ayol – oila – jamiyat triadasining badiiy tasvirini yaratishda Osiyo-Amerika diaspora adabiyoti namoyandalarning etnik kelib chiqish, madaniyat, din hamda ijtimoiy qatlam kabi omillardan foydalanish mahorati qiyosiy dalillanganiga oid nazariy va amaliy ma'lumotlardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2022-2023-yillarda amalga oshirilgan Erasmus+ dasturining "ICM, KA-107-International Credit Mobility between European Union and Uzbekistan HEIs, 2020-1-UK01-KA107-078419" nomli xalqaro amaliy loyihada foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 30-avgustdagi 01/511-son ma'lumotnomasi). Natijada

“Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy ijodida ayol obrazining ijtimoiy-ruhiy talqini” (2022) mavzusidagi ilmiy maqoladan tajriba almashuv materiallari va o‘quv-uslubiy majmua yaratishda qo‘llanilgan;

baxtsiz bolalik-cheklangan ta’lim-nochor turmush muammolariga yechim izlashda bosh va ikkinchi darajali ayol qahramonlar ruhiyatida yuzaga kelgan evrilishlar, ichki kurashlar, qalb jarohatlari, qat’iyat hamda jasoratlari ayollik perspektivasi va badiiy psixologizm tamoyillari orqali asoslanganiga oid xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Xalqaro aloqalar va badiiy tarjima bo‘limining ilmiy-ijodiy faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2024-yil 16-apreldagi 01-03/453-son ma’lumotnomasi). Natijada Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy badiiy mahorati, asarlar tarjimasi bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga erishilgan;

Xolid Husayniy hamda Malala Yusufzoy asarlaridagi mangu va tarixiy mavzular ifodasi, aynizamon va makonda ayolga bo‘lgan ayovsiz munosabat, poymol etilgan qadr-qimmatni Osiyo-Amerika diaspora adabiyotida ijodkorlarning biografik metod asosida tasvirlash mahorati badiiy-konseptual yaxlitlikda ilmiy-nazariy jihatdan isbotlangani xususidagi nazariy takliflardan Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan “Assalom Xorazm”, “Adabiy muhit”, “Ma’rifatnoma”, “Najot bilimda” dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 23-apreldagi 360-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilgan hamda ilmiy-nazariy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiya hamda anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 134 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Osiyo-Amerika adabiyoti: diaspora va ayol”** nomli birinchi bobida diaspora adabiyotining vujudga kelish omillari, nazariy tavsifi va ushbu tavsif asosida Osiyo-Amerika diaspora adabiyoti tahlil qilinib, asosiy xususiyatlariga ko‘ra tasniflangan, badiiy psixologizmda ayol qiyofasi namoyon bo‘lish usullari, bunda badiiy tasviriy vositalarning tutgan o‘rni hamda Husayniy va Yusufzoyning hayot hamda ijod yo‘llari xususida so‘z yuritiladi. Ma’lumki, Osiyo xalqlari, shu jumladan, afg‘onlar va pokistonliklar muayyan tarixiy-siyosiy sabablarga binoan o‘z yurtlarini tark etib, AQSH va Buyuk Britaniyaga muhojir sifatida borib, mahalliy til, madaniyat va yashash tarzini o‘zlashtirib, Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporalarini yaratishgan. Muloqotda keng qo‘llanilayotgan “osiyo-amerikalik” tushunchasi bugungi kunda Amerikada tug‘ilganidan qat’i nazar kelib chiqishiga ko‘ra “osiyolik” bo‘lganlarga nisbatan qo‘llaniladi. Osiyo-amerikaliklarning dastlabki etnik kategoriyasi xitoyliklar sanalib, ular Amerika hududlariga dastlab 1830-yillarda shakar plantatsiyalarida, 1860-yillarda temiryo‘l qurilishlarida ishlash uchun kelishgan. 1880-yillarda yaponlar, XX asrning boshlarida esa koreys, hind va filippinlik immigrantlar oqimi Amerikada qora ishchilar sinfini shakllantirgan. 2000-yillarda aholi sonining deyarli besh foizini tashkil etgan osiyoliklarning irqiy kamsitilishlarga duch kelganliklarini “Chinatown”, “Koreatown”, “Little Tokyos” kabi hududlarning shakllanishi bilan izohlash mumkin. Britaniyadagi pokistonliklar diasporasining shakllanishi Pokistonning 1947-yildagi mustamlaka maqomidan mustaqil davlat maqomiga o‘tishi bilan bog‘liq hududiy bo‘linishlar, Hindiston bilan siyosiy-harbiy mojarolar oqibatida kelib chiqqan 1950-60-yillardagi ko‘chishlarning yirik to‘lqini bilan belgilanadi. Osiyo-Amerika diaspora adabiyotining yaralish tarixi osiyolik muhojirlarning Amerikaga ko‘chib o‘tishining ilk to‘lqini bo‘lib o‘tgan davrdan uch asr keyin – XIX asrning o‘rtalariga borib taqaladi.

Tadqiqotimizda Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporalari adabiyoti yozuvchilarini tarixiy, ijtimoiy va siyosiy asoslariga ko‘ra quyidagi uch avlod kategoriyasiga ajratgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq deb topildi: 1) O‘z yurti (Osiyo)da tug‘ilib, o‘rta yoshlarida vatanni tark etgan yozuvchilar; 2) Bolaligidayoq Osiyodan ketgan muhojir yozuvchilar; 3) Ona yurti (Osiyo)da emas, Amerikada va Yevropada muhojirlar oilasida tug‘ilgan yozuvchilar.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda ikki yurt, ikki makonga mansublik diaspora, ekspatriant, muhojir, immigrantlar adabiyoti kabi atamalar bilan yuritiladi. Diaspora atamasi orqali asosan urush, siyosiy, iqtisodiy bosimlar, ochlik, nochorlik sababli tug‘ilib o‘sgan yurtini tark etishga majbur bo‘lgan immigrant, muhojir, ishchilar, qochoqlarning o‘zga yurtlarda yashashi tushuniladi. Tadqiqotimizda obyekt qilib olingan asarlar mualliflari Xolid Husayniy va Malala Yusufzoy ham o‘z ijodlarida diaspora jamiyatini tasvirlash yo‘lidan boradi. Ular asarlari va ijtimoiy faoliyatida ham ona yurtlariga tinchlik, barokat, to‘kinlik tilashadi hamda bugungi kunda istiqomat qilayotgan maskanga ham o‘z sadoqatlarini bildirishadi. Husayniy romanlarida afg‘on muhojirlarining yangi insonlar, yangi dinlar, madaniyatlar va etnik birliklar bilan tanishish omillari orqali o‘zligini anglab yetish yo‘lidagi sayohatini qalamga oladi. Holbuki, o‘z madaniyatini qo‘msash tuyg‘usi ba’zan yangi muhitga moslashish va o‘zligini qaytadan barpo etishga to‘sqinlik qiladi. Husayniy

muhojir sifatida o‘z asarlarida ijtimoiy, siyosiy va madaniy voqeliklarga badiiyat orqali perspektiva baxsh etadi. “Ming quyosh shu’lasi” (“A Thousand Splendid Suns”), “Tog‘lar ham sado beradi” (“And The Mountains Echoed”), “Shamol ortidan yugurib” (“The Kite Runner”) romanlarida aynan afg‘on diasporasining Amerika va boshqa chet davlatlardagi hayoti, qiyinchiliklar va muammolarini yoritib beriladi. Malala o‘zining avtobiografik ruhdagi “Men Malalaman” (“I am Malala”), “Vatandan ayrolarmiz” (“We are displaced”) asarlarida Pokiston, Suriya, Sudan, Somali va dunyoning boshqa notinchliklar hamda siyosiy talato‘plar qo‘pgan davlatlaridan Yevropaga bosh olib ketishga majbur bo‘lgan ayollarning, shu jumladan, o‘zining achchiq qismatini yoritadi.

Adabiy jarayonda ayolning yangi ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, uning vatandan va yaqinlaridan ayrolik hissi bilan bog‘liq murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qiladi. Bunda eng muhim vazifa muayyan xilqatning ruhiyati, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog‘liqdir. Diaspora yozuvchilari o‘z asarlariga qahramonlar, personajlar va hayotiy unsurlarni tanlab olar ekan, bundan hamisha ma‘lum bir maqsadni ko‘zlagan bo‘lishadi. Shu boisdan ular badiiy olamga olib kirayotgan har bir obrazlariga ma‘lum bir ma‘noni yuklab, o‘ziga xos sifatlar bilan tasvirlashadi, o‘sha ma‘no doirasida badiiy maqsadga muvofiq tarzda tilga kiritishadi va harakatlantirishadi. Buni zamonaviy Osiyo-Amerika va Osiyo-Yevropa diasporasi adabiyotining ikki vakili – Xolid Husayniy hamda Malala Yusufzoy asarlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Dastavval badiiy psixologizm haqida epik ijod namunalarning tahlili mobaynida so‘z yuritiladi, chunki aynan ushbu turga mansub asarlarda yozuvchining qahramonlar ichki dunyosini to‘laqonli va batafsil ochib berish uchun zarur maydon hamda vositalar yetarli bo‘ladi. Psixologik vositalar asosan uch guruhga ajratilgan holda tahlilga tortiladi: *bilvosita psixologizm, bevosita psixologizm va umumiy-belgilovchi xususiyatga ega psixologizm*. Qahramonlarning fikrlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalashi bilan bir qatorda rivoyachining nutqi ham asarda aralashib, qahramonning u yoki bu harakatini izohlashi va sabablarini tushuntirishi mumkin. Psixologizmning bunday turi umumiy-belgilovchi psixologizm deyiladi. Psixologik tasvirning bilvosita shakli personajlarning o‘ylari va his-tuyg‘ularini, ularning ichki o‘zgarishlar dinamikasini tashqi vizual va ovozli ko‘rinishlar, ya‘ni har doim ham bir ma‘noda talqin qilish mumkin bo‘lmagan tashqi, yaqqol ko‘rinib turuvchi detallar yordamida ruhiy holatni tasvirlash orqali aks ettiradi. Bunda quyidagi vositalardan foydalaniladi: *imo-ishoralar, xatti-harakatlar, holat, yuz ifodalari, ohang, psixologik portret*<sup>6</sup>. Badiiy psixologizmning ushbu shakli uslubiy jihatdan psixologik portret, ichki va tashqi tasvir, shuningdek, personajlarning tashqi nutqi singari badiiy vositalar yordamida ifodalanadi. Psixologik tasvirning bevosita shakli psixik jarayonlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlashni o‘z ichiga oladi va bu quyidagi usullardan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin: *qahramon nutqi, og‘zaki va yozma nutq (kundalik), ichki monolog, ichki dialog, orzular va ong oqimi*. Badiiy asarda qahramonlarning nutqi odatda muhim o‘rin egallaydi, ammo psixologizm qahramon

<sup>6</sup> Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Москва: INTRADA, 1999. – С. 12-28.

boshidan kechirgan narsalari haqida batafsil gapirganida, tasvirlanayotgan voqea haqida ham, butun dunyo bo'yicha o'z tushunchasi va nuqtai nazarini bildirganda namoyon bo'ladi. Tadqiqotimizda so'z yuritilayotgan Xolid Husayniy va Malala Yusufzoyning ijod mahsullarida badiiy psixologizmning *qahramonning ichki monologi* shaklidan keng foydalaniladi. Psixologik tahlil metodiga yondashgan holda o'quvchining ko'z oldida insonning ruhiy-ma'naviy olami namoyon bo'ladi. Ikkala muallif ham o'z qahramonlarining psixologik portretini yaratish asnosida ularning ruhiy holati orqali butun xatti-harakatlarining mantig'ini chiqaradi, ularning ichki dunyosini badiiy vositalar yordamida tasvirlaydi. Ularning romanlari diaspora, begona yurtga, begona jamiyatga ko'nikish muammolari bilan bir qatorda tobora qadrsizlanib borayotgan ayollarning ijtimoiy maqomini yuksaltirish, ularning ta'lim olishi, shaxsiy rivojlanishiga imkon yaratib berish maqsadini qamrab oladi.

Badiiy qahramonlari orqali Husayniy va Yusufzoy ayollarning bosma qoliplar iskanjasidan tashqaridagi hayotga nisbatan munosabatidagi tub o'zgarishlarni ifodalaydi, o'z navbatida, ular haqida global axborot vositalarida shakllangan "jabrdiyda", "ikkinchi darajali", "qadrsiz" singari bir yoqlama tasavvurni parchalashning uddasidan chiqadi. Mualliflarning ayol qahramonlari turli xil ko'rinishlardagi zulm, shafqatsizlik, itoatkorlik girdobida qolib, azob chekayotgan va nihoyat tanalari hamda ruhlari ustidan o'rnatilgan ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy hukmronlik hamda zulmga asoslangan nazoratdan xalos bo'lishadi. Har ikkala yozuvchi ularni nafaqat zulm va qadrsizlikdan qutulishda yordam beruvchi, balki boshqa ayollar uchun ham kurashish uchun o'zlarida iroda va shijoat topuvchi isyonkor hamda itoatsiz tabiatga ega insonlar sifatida tasvirlashadi. Ayollarning azob-uqubatlari mamlakatlarning hozirgi ahvoriga, asosan, urush davri va undan keyin o'rnatilgan rejimga bog'liq ekanligi ta'kidlab ko'rsatiladi. Shu bois ham adovatli va repressiv rejim sharoitida ayollarning, Afg'oniston va Pokistonning ko'rsatgan bardoshi Husayniy hamda Yusufzoy asarlari uchun birdek ahamiyatli mavzulardir.

Afg'on-Amerika va Pokiston-Britaniya-Kanada diaspora adabiyoti vakillari Xolid Husayniy hamda Malala Yusufzoyning tarjimai hollarini to'liq tahlil etmasdan turib, ular yozgan asarlarning bosh g'oyasi va maqsadi borasida ilmiy tadqiqot olib borish mumkin emas. Ingliz tilida ijod qiluvchi adib Xolid Husayniy 1965-yil 4-martda Afg'onistonning poytaxti Qobul shahrida tavallud topgan. Husayniyning otasi diplomat, onasi esa fors tili va tarix fanlari o'qituvchisi sifatida ishlagan. U voyaga yetgan muhit keyinchalik vatani taqdiriga, afg'onlar boshiga tushgan kulfatlarga befarq qaray olmaydigan taniqli yozuvchi bo'lib yetishishida muhim rol o'ynaydi. 1980-yilda AQSHdan siyosiy boshpana so'raguncha Husayniylar oilasi oila boshlig'ining xizmat vazifasi yuzasidan bir qancha vaqt Eron va Fransiyaning poytaxt shaharlarida istiqomat qilishgan. 1973-yilda Afg'oniston Respublikasi tashkil etilishi munosabati bilan Kobulga qaytishgan. 1973-yil Afg'oniston tarixiga davlat hokimiyatida barqarorlik va ijtimoiy himoya hukm surgan eng oxirgi yil sifatida kirgan. 1980-yilga kelib Afg'oniston kommunistlarning davlat to'ntarishi va Sovet qo'shinlarining bostirib kirishi, Amerikaning aralashuvi va Tolibonlarning hokimiyat tepasiga kelishidan qattiq aziyat chekayotgan edi. Afg'onistonda avj olgan siyosiy beqarorlik va doimiy tartibsizliklar tufayli, Husayniylar 1980-yilning sentyabr oyida Parijdan AQSHning Kaliforniya shtatiga ko'chib ketishadi va afg'on diasporasining

bir bo‘lagiga aylanishadi. 2003-yilda uning “Shamol ortidan yugurib”, 2007-yilda “Ming quyosh shu’lasi”, 2013-yilda “Tog‘lar ham sado beradi” va 2018-yilda to‘rtinchi romani – “Dengiz ibodati” (“The Sea Prayer”) nashr etilgan.

Malala Yusufzoy 1997-yil 12-iyulda Pokistonning Afg‘onistonga qo‘shni Svat vodiysida joylashgan Xaybar Paxtunxva provinsiyasidagi Mingora nomli shaharchada tug‘ilgan. 2007-yilda Svat vodiysi ustidan tolibonlarning hokimiyati o‘rnatilgach, shariat qonun-qoidalariga bo‘ysunish qat’iy talab qilina boshlangan va ayollarning ta’lim olishi, ozodligiga nisbatan cheklovlar kiritilgan. Tolibonlar Svat vodiysidagi qizlar maktablariga hujum qila boshlashgach, Yusufzoy 2008-yil sentabrda Peshovar va Pokistonda norozilik nutqlari bilan chiqish qilgan. 2009-yilda u Bi-Bi-Si axborot xizmati uchun urdu tilida tolibonlar bosimi ostida yashashning azob-uqubatlarini hamda ta’limni davom ettirishga bo‘lgan ishtiyoqini yoritib boruvchi blog yurita boshlaydi. Bunday faol norozilikni kutmagan Tolibonlar 2012-yil 9-oktyabrda maktabdan uyiga avtobusda qaytayotgan Malalaga o‘q uzishadi va u og‘ir yaralanib, davolanish uchun Birmingemga olib ketiladi. Shu tariqa Malala Yusufzoy Britaniyadagi Pokiston diasporasi vakiliga aylanadi. 2013-yilda uning “Men Malalaman: tik turib ta’lim olgan va tolibonlar tomonidan xo‘rlangan qizaloq” asari, 2019-yilda “We are displaced” romanlari nashr etiladi. Amalga oshirgan fidokorona ishlari va faolligi uchun Yusufzoy 2014-yilda Tinchlik uchun Nobel mukofotiga sazovor bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Adiblar nasrida adabiy-tarixiy mavzular mushtarakligi: ayol, bolalik-ta’lim-oila muammolari tasviri”** nomli ikkinchi bobida tadqiqot obyekti sifatida tanlangan asarlar asosida musulmon jamiyatida ayolning ijtimoiy maqomi, ayol yosh davrlarining badiiy tasviri, bolalik, ta’lim, oila, ayollik muammolariga batafsil to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, Husayniy va Yusufzoy asarlarida o‘z ifodasini topgan abadiy hamda tarixiy mavzularning qiyosiy tahlili ham mazkur bobdan o‘rin olgan.

Husayniyning “Ming quyosh shu’lasi” va “Tog‘lar ham sado beradi”, Malalaning “Men Malalaman” va “Vatandan ayrolarmiz” asarlarida ayol qahramonlar bolalik davridan yetuklik davriga o‘tar ekan, jismoniy, ijtimoiy va ruhiy jihatdan juda katta o‘zgarishlarni boshdan kechirishadi. Maryam va Laylo urushlardan charchagan Afg‘oniston sharoitida erta turmushga uzatilib, gender notengligi, oila oldidagi majburiyatlar va jamiyatning bosimiga erta duchor bo‘lishadi. Parining bolalik va o‘smirlik yillari ham har xil makonlar hamda sharoitlarda o‘tib, ulg‘ayganidan so‘ng uning hayotida yaqinini yo‘qotish azobi, sog‘inch va o‘zlikni anglab yetish singari mavzular asosiy o‘ringa chiqadi. Malala dastlabki romanida o‘zining tajribasi va kuzatishlari asosida tengdosh qizlari hamda jamiyatdagi ayollarning yosh davrlari tasvirini taqdim etgan bo‘lsa, uning ikkinchi asarini to‘liqligicha ayol qahramonlar tashkil etadi hamda ular bosib o‘tgan hayot yo‘llarini o‘zlarining tilidan hikoya qilib berishadi. Pokistonda o‘tgan ilk bolalik yillaridan tortib global miqyosda qizlarning ta’lim olishi uchun jon kuydiruvchi faol bo‘lib yetishgan davrigacha bo‘lgan voqea-hodisalarni qalamga olar ekan, Malalaning rivoyaviy yo‘sini orqali vaqt o‘tishi bilan qadriyatlarining mustahkamlanib borishini, maqsadlari ko‘lami kengayib, qilayotgan ezgu ishlari yanada ko‘proq insonlarga yetib borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Musulmon

jamiyatlariga mansub bo'lgan ayol qahramonlarning yosh davrlari xususiyatlari bolalik, o'smirlik va balog'at davrlariga ajratgan holda o'rganildi. Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasini" romani afg'on ayollari, shu jumladan, pushtun ayollari to'g'risidagi qarashlar va munosabatning o'zgarishida muhim rol o'ynagan, chunki roman afg'on madaniyatini to'la ochib berib, bir necha nafar afg'on ayollarining hayoti va dunyosini tushunishda vosita vazifasini bajaradi. Roman orqali o'quvchilarda shakllanuvchi fikr har qanday statistika va boshqa ma'lumotlardan kuchliroq hamda ta'sirliroqdir. Mazkur roman ta'siri o'laroq G'arb dunyosida afg'on ayolining imidji, ularning olami haqidagi fikrlar tamomila o'zgarib ketgan. Romanda ikki pushtun ayolining aksilsovet jihod, fuqarolar urushi va tolibonlarning zulmga asoslangan hokimiyati fonida kechgan o'ttiz yillik hayoti hikoya qilinadi. Afg'onistondagi ayollarning roli, jinsiy tengsizlik masalalarini yozuvchi Nana, Maryam, Fariba, Laylo, Aziza kabi ayol personajlar misolida perspektiv yoritib, urush, kamsitish, xo'rlash, zug'um ushbu yurt ayollari kundalik turmush tarzining ajralmas qismiga aylanib bo'lganligidan guvohlik beradi. Husayniy nafaqat jamiyatda, hatto oilada ham ota-onalar qiz va o'g'il farzandlariga farqli munosabatda bo'lishayotganini Aziza hamda Zalmay obrazlari misolida ochishga harakat qiladi.

Ozodlik kuch bilan majburan bostirilgan mentalitet o'rni erkinlikka erishish umidi egallaganidagina ularga berilishi mumkin. Yagona najot faqat sabrdir, Maryam va Layloning taqdiri buning isbotidir. Ayollarga faqat majburiyat va taqiqlar singdiriladi, lekin ularning huquqlari va imkoniyatlari borasida hech qachon og'iz ochilmaydi. Pushtun jamiyatidagi ayollarning tahqirlanishi va yerga urilishi har ikkala yozuvchining asarlari zamirida yotgan dolzarb hamda yechimini kutayotgan masaladir. Malala ta'kidlaganidek, ayollar va qizlarning ruhiy azoblariga hamda qaramliklariga chek qo'yish yo'lidagi eng muhim vosita bu – ta'lim. Ayollar o'zlarida kuch topib, haqlarini talab qilib boshlashsa ham jamiyatning tuban fikrlovchi qatlamlarining dashnomlaridan qutulib keta olishmasligini Malala mana bunday tavsiflaydi: *"Pokistonda mustaqillikni talab qiladigan ayollar otalariga, erlariga va aka-ukalariga bo'ysunishni istamaydiganlar deb hisoblanadi. Bu g'irt bema'nilik. Biz faqatgina o'zimiz mustaqil qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lishni istaymiz. O'qish yoki ishlashni o'zimiz hal qilishimiz kerak. Muqaddas Qur'onning hech bir joyida ayol erkakka qaram bo'lishi kerakligi aytilmagan. Yer yuzida yashovchi hech bir jonzot osmondan "ayol faqat erkak xohlagan narsani qilishi kerak" degan ovozni eshitmagan"*<sup>7</sup>.

Butun bir asarning syujeti va kompozitsiyasi ijtimoiy shaxslarning o'zaro munosabatga kirishishi jarayonida yuzaga keladi. *"Badiiy asarning voqelik bilan qay darajada bog'liqligi sotsiologik va gnoseologik metodlar qo'llanganida namoyon bo'ladi"*<sup>8</sup>. Biz tahlilga tortayotgan yozuvchilarning asarlarida ham ijtimoiy voqelik to'la aks ettirilishi natijasida o'ziga xos qahramonlar yaratilgan. Ulkan ijtimoiy, siyosiy, diasporik munosabatlar majmui bo'lgan qahramonlar obrazlari Husayniy va Yusufzoy asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Yusufzoyning ikki asarida, Husayniyning bir romanida ijtimoiy-siyosiy muammolar bola obrazi orqali yoritiladi.

<sup>7</sup> Yusufzoy M. Men Malalaman: tik turib ta'lim olgan va tolibonlar tomonidan xo'rlangan qizaloq. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 195.

<sup>8</sup> Rasulov A. Tanqidchilik ufoqlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. – B. 16.

Badiiy asarlardagi mazmuniy asoslar ularda ko‘tarilgan muammolar tizimi orqali namoyon bo‘lishi to‘g‘risidagi Qozoqboy Yo‘ldosh nazariyasiga binoan muammolar millat miqyosidagi muammolar, ijtimoiy-madaniy muammolar, qaltis yoki avantiyur muammolar, ma‘naviy-axloqiy muammolar va falsafiy muammolar<sup>9</sup> kabi turlarga ajratib o‘rganildi. Milliy muammolarga Afg‘oniston va Pokistondagi uzoq yillik siyosiy beqarorlik, hokimiyat uchun kurash, aholiga nisbatan zo‘ravonlik siyosati va mojarolarning tinimsiz davom etishi, aholi katta qismining o‘z uyini, vatanini yoppasiga tashlab boshqa davlatlarga ketishini kiritish mumkin. Ijtimoiy-madaniy muammolarga gender notengligi va ayollarga nisbatan bosimning kuchayishi, ta‘limdagi inqiroz, qizlar ta‘limining taqiqlanishi, amaldorlarning mansab lavozimini suiiste‘mol qilish holatlari avj olganligi, islom dinidan niqob sifatida foydalanib, aholining miyasini yuvish kiradi. Qaltis muammolar deganda kambag‘allikning ortishi va iqtisodiy qiyinchiliklar, insonlarga yo‘qotishlar va hissiy-psixologik travmalarning keskin ta‘sir qilishi, inson hayotiga tajovuzning ko‘payishi tushuniladi. Ma‘naviy-axloqiy muammolar esa o‘zida kelajakka bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi, ruhiy tushkunlik va axloqiy dilemmalar, aybdorlik va sharmandalik hissini ifoda etadi. Va nihoyat, falsafiy muammolar sirasiga ezgulik va yovuzlikning so‘roq ostida qolishi, mehribonlik va berahmlik o‘rtasidagi arosatda qolgan inson, erkinlik va o‘zlikning ma‘nosi, haqiqat va adolatning qaror topmasligi, fidokorlik va mehrning qadrsizligini kiritish mumkin.

Husayniy va Yusufzoy badiiy mahoratini yorqin aks ettirgan voqelik – qahramonlarning bolalik kechinmalari syujetning asosiy qismini tashkil etadi. Mualliflar dunyoni, uning tinch va totuvligini aynan bolalar nigohi orqali ko‘rishni istashadi. Shunga monand ravishda, bolalik tushunchasi siyosiy o‘zgarishlar fonida uch xil tus oladi, deyish mumkin: urushlardan oldingi bolalik, urushlar davridagi bolalik va urushlardan keyingi bolalik. Urushdan oldingi bolalikni qaysidir ma‘noda baxtli deya tavsiflash mumkin bo‘lsa-da, baribir Sharqning bu ikki mamlakatida bolalar manfaati bilan bog‘liq muammolar talaygina edi. Siyosiy mojarolar faqat ularni yaqqol ko‘rsatib, yanada palak yoyishiga sabab bo‘lgan. Husayniyning ilk romani avvalidagina biz baxtli va farovon bolalik manzaralarini ko‘rishimiz mumkin, boshqa ikki asarida esa baxtli bolalik tushunchasi nihoyatda torayib, shaxsiy ahamiyat kasb etadigan bo‘lib qoladi. Uning “*Afg‘onistonda bolalar ko‘p, ammo bolalik yo‘q*”<sup>10</sup>, degan jumlasini ayni haqiqatning o‘zidir.

Xolid Husayniyning “Tog‘lar ham sado beradi” romanida bolalikning tutgan o‘rni asar qahramonlarining taqdiri orqali yoritib beriladi, bunda erta bolalik davridagi kechinmalarning keyingi davrlarda bevosita ta‘sirini ko‘rsatishiga keng ahamiyat beriladi. Adib deyarli barcha asarlarida, jumladan, “Tog‘lar ham sado beradi” romanida Afg‘onistondagi afg‘on bolalari va diasporadagi afg‘on bolalari tipik obrazini yarata olgan. Aka – Abdulla va singil – Parining oilaviy qiyinchiliklar tufayli bir-biridan kuch bilan ajratilishi keyinchalik qit‘alar hamda bir necha o‘n yilliklarga cho‘ziluvchi hissiy jarohatlar yetkazib, rishtalarni qayta bog‘lashlari bilan tugaydi. Asarda yigirma bitta oilaning taqdiri hikoyalar ko‘rinishida ochib beriladi. Roman voqealarining asosiy maqsadi ota-o‘g‘il, ona-qiz, aka-singil, opa-singil va

<sup>9</sup> Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – B. 203.

<sup>10</sup> Husayniy X. Shamol ortidan yugurib. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.185.



aka-ukalar misolida oila qadriyatlarini Yevropa hamda Osiyo misolida tasvirlashdan iborat va Husayniy ushbu vazifani diaspora adabiyoti xususiyatlari asosida ochib beradi. Asardagi to‘qqiz bobning har biri alohida syujet va qahramonlariga ega hikoyalar bo‘lib, Husayniy shaxs – oila – jamiyat uzviyligida personaj taqdirini yoritadi.

Malalaning ikkala asarida ham bolalik va oila muammolari bog‘liqlikda aks etgan bo‘lib, bunda ham, albatta, yuqorida sanab o‘tilgan siyosiy notinchliklar asosiy omil bo‘lganligini e‘tirof etmoq lozim. Garchi Malalaning o‘zi qizlar erkin nafas oluvchi, kamsitishlar va tahqirlashlardan yiroq oilada katta bo‘lgan bo‘lsa-da, uning bolalik davri jamiyatda qo‘yilgan taqiqlar tufayli dahshatli o‘tgan, jamiyatdagi oilalar ahvolidan, tengdoshlarining yashash va o‘qish sharoitidan u boxabar bo‘lib turgan. “Vatandan ayrolarmiz” asarini yozishdan maqsadini ifodalayotganida Malala Yusufzoy o‘zi uchratgan kuchli, ammo ko‘makka muhtoj qizlarni dunyo tanishiga va ular singari boshqa qizlarning ham qahramonlardan o‘rnak olishda o‘zlarida shijoat topa olishida vosita vazifasini o‘taydigan kitob ekanligini yozadi. Dunyo bo‘ylab o‘z yurtlarini har xil sabablarga ko‘ra tark etishga majbur bo‘lgan va farovon hayot qurish ilinjida yashayotgan qizlardan ko‘p narsa o‘rganish mumkin, bular men shaxsan uchratgan qizlarning hikoyasi, aslida ularning soni juda ko‘p, deydi. O‘zining ham jonajon Svat diyorida ketishiga sabab bo‘lgan xavfni yana bir bor qayd etib, uydin ketish azobi unga juda tanish ekanligini, shu sababli, kitobda hikoya qilinajak qizlarning boshidan kechirganlari o‘zi qatori hech kimni befarq qoldirmasligiga ishonishini bildiradi.

Husayniy va Yusufzoyning asarlarida ilgari suriluvchi eng ahamiyatga molik masalalardan yana biri ta‘limdir, chunki ta‘lim bu – insonlarning aqlan ulg‘ayishida, o‘zlarida hayot uchun kerakli qobiliyat va ko‘nikmalarni shakllantirishlarida eng muhim jarayondir. Mualliflarning asarlarida ayollarning jamiyatdagi o‘rni, oiladagi mavqei singari mavzular bilan bir qatorda ta‘lim bilan bog‘liq muammoli vaziyatga ham keng e‘tibor beriladi. Badiiylikning ta‘sirdorlik va haqqoniylik mezonlari asosida tasvirlangan voqealarni o‘qir ekan, kechasi tolibonlarning xonadonlarga bostirib kirishlari, ayol-u qizlarni zo‘rlab, o‘ldirib ketishdek qabih harakatlari odamni larzaga soladi. Malala Yusufzoyning avtobiografik yo‘nalishdagi “Men Malalaman” asari va “Vatandan ayrolarmiz”da bolalar, asosan, yosh qizlarning oilaviy va ijtimoiy bosimlar ta‘siridan chiqa olmay, ta‘lim olish istagini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi qiyinchiliklari mavzusi keng o‘rin egallaydi. Ta‘lim o‘z ehtiyojlari va huquqlari uchun kurash yo‘lini tanlagan bugungi kun qizlarining dunyoqarashi kengayishida, o‘z mamlakatining va dunyoning farovon bo‘lishida o‘z hissasini qo‘shishlarida asosiy o‘rinni egallaydi. Maorif qizlarning o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshirib, erkak va ayolning o‘rtasidagi tenglik g‘oyasini tushunib yetishlarida zarurdir.

Tahlil qilinayotgan to‘rtta asar mavzu jihatdan o‘zaro mushtaraklik kasb etadi, deyish mumkin, negaki diaspora adabiyotining asosiy xususiyatlariga tayangan holda aytish mumkinki, Husayniy va Yusufzoylarning ijodida, avvalo, vataniga nisbatan sog‘inch va uning, xalqning, bolalar va ayollarning taqdirini o‘ylab, qayg‘urish hissi ustuvordir. Garchi Husayniy Kobulda, Yusufzoy Svat vodiysida tug‘ilib voyaga yetgan bo‘lsalar-da, har ikkala adibning hayotiga, keyinchalik ta‘lim olishi va ijod qilishiga tarixiy-siyosiy o‘zgarishlar, shu jumladan, tolibonlarning olib borgan

siyosati bir xil darajada katta ta'sir o'tkazgan. "Shamol ortidan yugurib"da voqealar ota va o'g'il, "Ming quyosh shu'lasida"da ona va qiz, "Tog'lar ham sado beradi"da esa aka-uka va opa-singillar o'rtasidagi munosabatlar prizmasi orqali hikoya qilinadi.

